

**AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN O'QUVCHILAR NUTQINI  
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Mamatova Aziza Bo'riboevna**

*Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya kafedrasи dotsenti v.v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi xalqning farovvon bo'lishi o'sha davlat yoshlari ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun ekanligi mamalakatimizga yoshlar va yosh avlodga bo'lgan e'tiborning naqadar muxim va kuchlilagini anglatadi. Shavkat Miromonovich Mirziyoev BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovvonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" deb BMT minbaridan turib jahon hamjamiyatiga yuksak taklif bildirdilar. Pirovardida yosh avlod salomatligini ta'minlash, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, jahon standartlariga moslashtirish borasida respublikamiz miqyosida juda katta sezilarli chora-tadbirlar ko'rildi. Shuningdek, aholining ajralmas bo'lagi bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirish ishlari o'ta dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi uch yil ichida ayniqsa maxsus ta'lim mazmunini takomillashtirishga juda katta e'tibor qaratildi.

Ayniqsa, aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish, mavjud kamchiliklarini korreksiyalash, mehnatga o'rgatish korreksion maxsus ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lganligi sababli dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar kompleks nuqson xarakteriga ega bo'lganligi- barcha ruhiy jarayonlarning rivojlanishida ham orqada qolishlar kuzatilganligi sababli bolalarni ijtimoiy jamiyatga moslashtirish ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar odatdagi aql-idrokka ega tengdoshlariga qaraganda ko'proq darajada boshqalar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu bir qator sabablarga bog'liq. Aqli zaif bolalar nutqi juda sekinlik va qiyinchiliklar bilan rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi.

Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqining buzilish tizimli xarakterga ega bo'lganligi sababli aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqini rivojlanitirish va mavjud kamchiliklarni korreksiyalash quyidagi asosiy masalalarni hal qilish orqali ta'minlanadi:

1. Eshitish va fonematik idrokni rivojlantirish.
2. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni tuzatish;
3. Nutqni tushunishni rivojlantirish;
4. Lug'at boyligini oshirish;
5. Bog'langan nutqni rivojlantirish;
6. Nutqning grammatik tomonini rivojlantirish;
7. Mustaqil nutqni shakllantirish;
8. O'qish va yozma nutqdagi kamchiliklarni korreksiyalash.

Aqli zaif bolalar nutqini yuqorida keltirilgan tartibda korreksiyalashga to'laqonli erishish esa quyidagi bir qator talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

- Korreksion ishni iloji boricha ertaroq boshlash;
- Korreksion logopedik ishda psixolog, nevropatolog va oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish;
- Nuqsonli bolaning real yosh davriga, real imkoniyatlariga va ularni tarbiyalash maqsadlariga muvofiq bo'lgan aynan mos dasturni va karreksion metodlarini qo'llash.

Aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilar bilan erta korreksion ishlarni olib borish ya'ni ularning nutqidagi kamchiliklarni ertaroq korreksiyalash bolalarni ertaroq va samaraliroq ijtimoiy jamiyatga moslashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu toifa bolalar nutqini erta korreksiyalash bolaning rivojlanishida jiddiy ijobiy siljishlarga olib kelishi mumkin, bu esa uning kelgusidagi butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Ilk logopedik korreksiya faqat bolani rivojlantirishning samarali vositasi sifatidagina emas, balki tashxislashning ishonchli vositasi sifatida ham ahamiyatga ega, chunki faol pedagogik ta'sirdagi uzoq vaqt davomida kuzatish jarayonida har bir bolaning barcha imkoniyatlari, xususiyatlari va ikkilamchi nuqsonlari to'liq namoyon bo'ladi, buning natijasida esa, aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tomonidan maktab dasturini samarali ozlashtirilishiga erishiladi.

Korreksion logopedik ishda psixolog, nevropatolog va oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish esa aqli zaif bolana har tomonlama kompleks o'rganishga va kompleks tarzda yondashishga katta yordam berishi bilan korreksin ish jarayonida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning bilish faoliyatining oliy shakllari yaxshi rivojlanmaganligi, fikrlarsh doirasining juda yuzakiligi, nutqning juda sekin rivojlanishi va sifat jihatdan o'ziga xosligi, hatti-harakatini soz orqali nazorat qilishning izdan chiqqanligi hamda hissiy-idoraviya sohaning tolaqonli emasligi bolaning real yosh davriga, real imkoniyatlariga va ularni tarbiyalash maqsadlariga muvofiq bo'lgan aynan mos dasturni va karreksion metodlarini qo'llashni talab etadi.

Shuning uchun aqliy rivojlanishida muammosi bolgan oquvchilar qiziqishlari va rivojlanish darajasini iniobatga olgan holda nutqini rivojlanadirish bo'yicha quyidagi dars ishlanmasini taklif etamiz:

**2-sinf: Nutq o'stirish darsi. Mavzu: Bahor**

**T'limiy maqsad:** Barch fasllar, bahor fasli, bahor faslida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, bahor faslining ahamiyati haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda tabiat, tabiat hodisalariga nisbatan muhabbat va qiziqish uyg'otish.

**Korreksion rivojlaniruvchi maqsad:** lugat boyligini oshirish, bog'langan nutqni rivojlanirish, sozlarni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** fasllarga oid rasmlar, bahor fasliga doir tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:**

Salomlashish.

Bolalar diqqatini darsga jalg qilish maqsadida barmoq mashqlari o'tkazish: "Barmoqlarni salomlashtirish", "Uycha", "Quyonim", "G'oz", "Archa" mashqlari.

**O'tilgan mavzuni takrorlash:**

O'tgan darsda berilgan vazifa yuzasidan "Zinama-zina" o'yinini o'ynash.

O'yin mazmuni: Doskaga zina rasmi chiziladi.O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarga savollar beriladi. To'g' javoblar soniga qarab oquvchilar zinalardan ko'tarilib boradilar. Eng oxirgi zinaga birinchi bo'lib yetib borgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

**Yangi mavzu bayoni:**

1. Bahor fasliga doir rasmlar bolalarga tarqatiladi. Har bir bola individual ravishda rasmda nima tasvirlanganligini va qaysi faslga oidligini og'zaki gapirib berishi talab etiladi.

2. "Ertak to'qiymiz" o'yini. Ushbu o'yinni o'tkazish uchun fasllar va bahor fasliga oid syujetli rasmlardan foydalaniladi. O'quvchilarga "Bahor" ertagini to'qish taklif etiladi.

-Hozir biz siz bilan bahor fasli haqida ertak toqiymiz.

Buning uchun men sizga ko'rsatgan rasmlarni to'g'ri joylashtirib chiqishingiz lozim.

O'ituvchi bahor faslining rasmini ko'satib og'zaki hikoya qiladi:

-Bir bor ekan bir yo'q ekan qadim zamonda fasllar bir biri bilan juda ahil bolib yashashgan ekan. Bir birini juda hurmat qilisharkan. Lekin bir kuni ularning almashish o'rni yodidan ko'tarilib qolibdi. Bahor fasli tugab qish fasli kirib kelibdi. Bahor faslidan keyin qish fasli keladimi?

(O'quvchilar qish faslidan keyin bahor fasli kelishini ma'lum qiladilar).

-Albatta qadrli o'quvchilar, bahor faslidan oldin qish fasli keladi.

-Keyin kuz fasli kirib kelibdi. Bolalar bahor faslidan keyin kuz fasli keladimi?

(O'quvchilar bahor faslidan keyin yoz fasli kelishini ma'lum qiladilar).

- To'g'ri aziz o'quvchilar, bahor faslidan keyin yoz fasli keladi. Yoz faslidan keyn qaysi fasl keladi? (O'quvchilar kuz fasli kelishini ma'lum qiladilar.)

-Rahmat o'quvchilar siz fasllarni oz ornini topishlariga yordam berdingiz.

-Shunday qilib bahor fasli kirib kelibdi. Bahorda tabitda qanday hodisalar ro'y berishini aytib ertagimizni davom ettiramiz. (O'quvchilarga bahor fasliga oid rasmlar tarqatiladi. Ular rasmdagi tasvirni so'zlab berishlari lozim.)

-Bahorda daraxtlar gullaydi.

-Maysalar o'sadi.

-Qushlar uchib keladilar.

-Dehqonlar ekin ekadilar.

-Bog'bonlar daraxtlarni parvarish qiladilar.

-Bahorda tez-tez yomg'ir yog'adi.

-Har xil gullar ochiladi.

-Rahmar qadrli o'quvchilar. Shunday qilib bahor fasli kirib kelishi bilan atrof – olam ham uyonarkan. Shuning uchun ham bahorni biz fasllsr kelinchagi deb atar ekanmiz. Bahor faslining tabiatdagi o'rni va ahamiyati juda katta. O'zining husniyu malohati bilan o'lkamizga kirib kelgan bahor fasli bizga juda koplab tuhfalar inom qilar ekan.

-Mana aziz oquvchilar biz siz bilan bahor fasli haqidagi ertagimizni yakunladik.

**Jismoniy daqiqa:**

Quyigadi mazmundagi sh'er asosida jismoniy-ritmik harakatlarni bajarish.

Qushlar uchib keldilar

Kolmakchaga qo'ndilar

Y yon bu yon qarashib

Yana uchib kettilar.

**Mustahkamlash:**

"Nima yo'qolib qoldi?" o'yini. Oyinning borishi: doskaga mavzuga oid 6 ta rasm qoyilib, bolalar kozlarini yumbach bitta rasm olib qoyiladi. Oquvchilar qaysi rasm yoqolib qolganligini topishlari lozim.

**Uyga vazifa.**

Bahor faslida tabiatda boladigan o'zgarishlarni og'zaki yodlash va tasvirini chizish.

**Rag'batlantirish va yakunlash.**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik o'ziga xos tomonlari, shuningdek ushbu bolalalarda nuqson strukturasi, mexanizmlari, simptomlaridan kelib chiqib masus korreksion ta'limni tashkil etishda logopedik ishning samaradorligi olib boriladigan pedagogik jarayonning negizi va asosi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan o'quvchilar nutqidagi nuqsolar yuqori darajada korreksiyalansagina bu bolalarni

ijtimoiy jamiyatga moslashishlarida ko'plab muammolarga yechim topishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ayupova M.Yu. "Logopediya". Toshkent: 2007 y.
2. Граборов Ф.Н. "Олигофренопедагогика". Москва: 2005 г.
3. Mamedov K.K. "Aqli zaif bolalar psixologiyasi". Toshkent: 1994 y.
4. Nurmuhamedova L.SH. "Aqliy rivojlanishida muammozi bo'lgan bolalar ma'naviyatini shakllantirishda oilaning ta'siri". Toshkent: 2005 y.
5. Po'latova P.M. "Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika)". Toshkent: 2005 y.
6. Обучение и воспитание детей во вспомогательной школе. Пособие для учителей и студентов дефектологических факультетов педагогических институтов. Под.ред. В.В.Воронковой – Москва: Школа-Пресс, 2004 г.